



TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI BALIKESIR UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI FIRAT UNIVERSITETI,
YANGLING KASB-HUNAR VA TEXNIKA KOLLEJI**

**“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI:
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI, YECHIMLARI,
TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr

**“BOOKMATY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 811(075)

KBK: 81.1

T 42

Tilshunoslikning amaliy masalalari: zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari, yechimlari, taraqqiyoti va istiqbollari [Matn]: to‘plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 654 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan **Guliston davlat universitetida 2025-yil 29-30-sentabr kunlari o‘tkazilgan “TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Anjuman zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb ilmiy mavzulari va amaliy masalalariga doir uslubiy ishlanmalarni aks ettirishga qaratilgan.

Mas’ul muharrirlar:

f.f.f.d. (PhD), dotsent A.Axrorov, f.f.d., professor F.Sharipov, f.f.d., professor I.Ermatov, f.f.n., dotsent J.Abdullayev, f.f.n., dotsent I.Pardayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent. M.Latipov, Prof. Dr. Banovsha Mammadova Guloghlan, Prof. Dr. Ertan Örgen, Prof. Dr. Suheyra Demirkol Orak.

Tahrir hay’ati:

A.Axrorov, A.Mamatqulov, Sh.Ro‘ziqulov, Z.To‘ychiyeva

To‘plamga keltirilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

ISBN 978-9910-06-724-2

© Guliston davlat universiteti, 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

01. TILSHUNOSLIK FANINING TARAQQIYOTI: YANGI YONDASHUVLAR VA YUTUQLAR

SO‘Z TURKUMLARI VA GRAMMATIK KATEGORIYALARNING AMALIY BOSQICHDAGI O‘RNI

Sharipov Fazliddin Galiyevich,
Guliston davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni o‘zbek tilining yangi – amaliy bosqichga o‘tishi bilan bog‘liq yechimini kutib turgan muammoli masalalarga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: korpus, kompyuter lingvistikasi, konkordans, elektron kutubxona, amaliy bosqich.

Abstract. This article is distinguished by the fact that it focuses on problematic issues that await the solution of the transition of the Uzbek language to a new – practical stage.

Key words: corpus, computer linguistics, concordance, electronic library, practical stage.

Аннотация. Его отличает направленность на проблемные вопросы, ожидающие решения перехода узбекского языка на новый - практический этап.

Ключевые слова: корпус, компьютерная лингвистика, конкорданс, электронная библиотека, практический этап.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan axborot texnologiyalari jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni yuklamoqda. Shu sababdan tildan amaliy tarzda foydalanish samaradorligi faning ham, ta’limning ham asosiy vazifasiga aylandi. Buning natijasida til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug‘ullanadigan amaliy yo‘nalishlarga o‘tish to‘lqini amalga oshmoqda. Til ta’limi ham amaliy xarakter kasb etib, umuman olganda, filologiya va til o‘qitish sohasida ta’lim oluvchilarning muayyan nutqiy vaziyat sharoit va madaniy muhitda tildan oqilona, samarali foydalanish kompetentsiyasini rivojlantirish va uning filologik ta’minotini vujudga kelishi masalasi bilan shug‘ullanish mutlaqo kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog‘liq nazariy ta’limiy va amaliy masalalar bilan shug‘ullanadi. Professor B.Mengliyev tomonidan: “Nazariy filologik faoliyat – tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha fundamental bilimlarni egallash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik konsepsiyalar va alohida lisoniy, adabiy, hodisa va jarayonlar, turli shakldagi matnlarni turli nazariy

hukm va xulosalar chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma'lumotlarni to'plash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha bo'yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtirok etish, axborot va mavzular bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og'zaki, yozma va virtual tartibda taqdim etishdir", – deb aytib o'tilgan [1. B.46-47].

Ta'limiy filologik faoliyatga ham olim quyidagicha izoh beradi: "Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, oliy, umumta'lim va kasbiy ta'lim muassasalarida til va adabiyot bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo'yicha mashg'ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o'quv metodik materiallar tayyorlash, filologik bo'limlarni va o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ommalashtirish va tarqatish bilan shug'ullanadi" [1. B.47].

Demak, yuqoridagi ikki faoliyat turidan tashqari, uchinchi, bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan amaliy faoliyat turi ham, ya'ni amaliy filologik faoliyat olib borish jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Tilning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab ishlarni bajarishimiz shart ekanligi aniq bo'lmoqda. Bu turli hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug'at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish qiyinchilik tug'dirmasligi kunday ravshandir.

Til dalillarini ilg'or metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yig'ish va ishlov berish samarali metodika va me'yorlar asosida turli xildagi matnlar yaratish, korxona va tashkilot hamda muassasalarda rasmiy idora hujjatlari bilan ishlash, turli shakl va tipdagi matnlarni qayta ishlash va ularga ishlov berish kabi minglab vazifalarni bajarishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj maxsus amaliy filologik kompetensiyaga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Darhaqiqat, amaliy filologik faoliyatni yo'lga qo'yish uchun amaliy filologiya bakalavri va amaliy filologiya magistri mutaxassislarni tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, amaliy filologiya bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar – jamiyatini oldida turgan muhim yo'nalishi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy ruh singdirilgan izlanishlardir. Jonkuyar olimlarimizdan biri professor B.Mengliyev "til egalarining lisoniy imkoniyatlaridan pragmatik foydalanish samaradorligi masalasi bilan shug'ullanadigan o'zbek amaliy tilshunosligining milliy xarakterdan sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo'nalishlari rivojlanish ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg'un. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va globallashuv asrida o'zbek tilining global til korpuslariga qo'shiluvini ta'minlash tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda deydi [1. B.52-53].

O'zbek tilining milliy korpusini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Chunki busiz o'zbek tilshunosligining kelajagini ko'rib bo'lmaslik kun sayin ayon bo'lib bormoqda. Bunga jamiyatdagi barcha sohalarining jadal sur'atga o'sib borayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, shular jumlasiga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb vazifa ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda

mislsiz rivojlanib borayotgan axborot texnologik jarayon ham tilga funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida o'z eshiklarini ochib bermoqda. Ayniqsa, tilning imkoniyatlarini namoyon qilish va egallash borasida til korpusining roli beqiyos ekanligini ta'kidlash mumkin.

Til korpusi qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan, ma'lum bir tilga oid matnlar majmui bo'lib, o'n milliondan tortib, yuz milliongacha, hatto, milliardlab so'z qo'llanishlarni o'z ichiga oladi[1.B.54]. Til korpusining zamonaviy va ilmiy yangiligi – tinimsiz yangilanib borish imkoniyatiga egaligi, keng qamrovliligi va foydalanishda qulayligi bilan xarakterlanadi. Til korpusi – matnlar maydoni va korpus menejeridan iborat bo'lib, lug'atlardan farqli ravishda so'zlarning qo'llanish chastotasi, tillarning rivojlanish va o'zgarish darajasini, hatto, har bir so'zning qo'llanishi misolida ham aniqlab bera oladi[1. B.54].

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, yuqorida aytganimizdek, oddiy elektron kutubxonalardan o'zining qidiruv dasturiga bo'ysundirilganligi, til korpusi internet tizimda faoliyat ko'rsatayotganligi sababli katta iqtisodiy samara berishi va uzluksiz yangilanib borishi, eskirish xususiyatidan holi ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor B.Mengliyev o'zining monografiyasidan milliy korpus milliy til xazinasini demakdir. Undan barcha soha vakillari foydalanishlari mumkinligi, ayniqsa, tilshunoslar uchun bamisoli "vose" maydoni" maqomida bo'lishini ta'kidlaydi [1. B.55].

Haqiqatan, kompyuter texnologiyalari XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri sanaladi. Keyingi yillarda u boshqa fanlar singari tilshunoslikka ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, matematik lingvistika, aniqrog'i, uning aksiomatik nazariyasi zahirida kompyuter lingvistikasi fani vujudga keldi. Umuman, katta hajmdagi axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va kerakli manzillarga jo'natish ehtiyoji kompyuter lingvistikasining yaratishi uchun asos bo'lib xizmat qildi [2. B.428].

Hamdo'stlik mamlakatlarida kompyuter lingvistikasi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu sohada, ayniqsa, Moskva, Sank-Peterburg olimlari muhim ishlarni olib bormoqdalar. Rus kompyuter lingvistikasida A.V.Anisimov, I.A.Baratchikov, E.I.Korolev, R.G.Kotov, Y.A.Marchuk, L.L.Nelyubin, R.G.Piotrovskiy kabi olimlarning izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bu olimlar, asosan, mashina tarjimai ishlari bilan shug'ullanishgan. Shu bilan barcha rus olimlari avtomatik tarzda tilga o'qitish masalalari bo'yicha ham bir qancha ishlarni amalga oshirganlar [4;12]. Bundan tashqari, rus tilshunosligida matnlarni avtomatik tahrir qilish yo'nalishi bo'yicha ham bir qator ishlar olib borildi [42.B.20-22;5.B.36-41]. Keyingi yillarda Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston singari mamlakatlarda ham kompyuter lingvistikasi bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

O'zbek tilshunosligida ham kompyuter lingvistikasi bo'yicha muayyan ishlar olib borilgan. Jumladan, matnni sistem-statistik tahlil qilish bilan ilk bor I.A.Kissen shug'ullangan. U 1972-yilda nashr etilgan chastotali lug'atida o'zbek badiiy prozaik matnlarida eng faol so'zlar miqdori 1227 ta ekanligini aniqlagan edi. S.Rizayev esa, "Hozirgi o'zbek adabiy tilida harf va fonemalarning qo'llash chastotasi" (1967),

“Tilshunoslikda matematik metodning qo‘llanishiga doir” (1973), “Bo‘g‘in strukturasining o‘rganish tajribasidan” (1975), “Kibernetika va tilshunoslik” (1976) nomli asarlarida tilshunoslikda matematik lingvistika va mashina tarjimai nazariyasining yuzaga kelishi sabablarini, ularning mavjud bo‘lishini ta‘minlovchi EXM (kompyuter)larning yaratish tarixi, dastur tuzishida sun‘iy tillardan foydalanish imkoniyatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar beradi. Xuddi shu tarzda kompyuter lingvistikasini o‘rganishga qiziqish, bu soha bilan muntazam ishlash boshlandi. Bu esa o‘zbek tilshunosligini kelajakda o‘rganish va dunyo tillari orasida o‘z mavqeni oshirish borishdek ulkan vazifalarning yechimi ekanligi hech kimga sir emas.

A.Pulatovning 2011-yilda nashr etilgan “Kompyuter lingvistikasi” nomli kitobida “O‘zbek kompyuter lingvistikasini yaratishdan oldin ona tilimizni yuqori va to‘liq (masalan, ingliz tili) darajasida sistemalashtirish, formalashtirish vazifalarni yechish kerak” – deb o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan ikki talabni hamda o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan o‘n uchta asosiy masalani sanab o‘tadi[7. B.161].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan holatlardan aksariyat qismlari, bugungi kun kompyuter dasturlari ichida faol ishlab kelmoqda. Lekin kompyuterga ovoz orqali kiritish amalga oshirilgan yo‘q. O‘zbek tiliga o‘qitadigan va bilimlarni baholaydigan kompyuter dasturi deganda, faqat test asosida baholash, ya‘ni ko‘rsatilganlardan ma‘lum miqdorini belgilash ishlatilayotgan bo‘lsa, chizgan surat, matematik formuladagi xatolik yoki matnda yo‘l qo‘yilgan orfografik, uslubiy hamda boshqa xatoliklarni aniqlovchi dasturini mukammal qilib yaratish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. To‘g‘ri, bu vazifalarni bajarish juda qiyinday tuyiladi, lekin bugungi kunda o‘zbekcha ishlaydigan “Windows” operatsion tizimi yaratilgan, biroq ishlash darajasi 100%ni tashkil etmasa-da, demak, bu vazifalarni uddalasa bo‘ladi. Tarjimon dasturlarni ham ko‘rishimiz mumkin, lekin mukammal ishlamasligi guvoh bo‘lamiz. O‘zbekcha matnlarni tahrirlovchi kompyuter dasturlarni yaratish esa, oliy maqsad bo‘lsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi[8].

Tilning amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni, ya‘ni hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug‘at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish hamda boshqa jihatlarni kompyuter orqali bajarish o‘zbek zamonaviy morfologiyasining yangi amaliy bosqichini boshlab beradi.

O‘zbek tilshunosligida yangi amaliy bosqichga o‘tish, ya‘ni amaliy filologik faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun amaliy filologiya bakalavri va amaliy filologiya magistri mutaxassislarni tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu kompyuter lingvistikasi oldida turgan asosiy vazifalar, ya‘ni kompyuterga ovoz orqali kiritish, o‘zbek tiliga o‘qitadigan va bilimlarni baholaydigan dastur yaratish, chizilgan surat, matematik formuladagi xatolik, matnda yo‘l qo‘yilgan orfografik, uslubiy hamda boshqa xatoliklarni aniqlovchi dasturini mukammal tarzda yaratishdir.

Adabiyotlar

1. Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. – Тошкент: ClobeEdit, 2020. –Б. 46-47.

Анисимов А.В. Компьютерная лингвистика: мифы, алгоритмы, язык. – Киев: Наука думка, 1991.

2. Мельчук И.А. Порядок слов при автоматическом синтезе русского текста // Научно техническая информация 1985. №12 –С. 36-41.

3. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск 24. Компьютерная лингвистика. – Москва: Прогресс, 1989. –С. 428.

4. Панова – Яблошкина И.С. Теоретические аспекты и практическая реализм компьютерного обучения инастранным языкам. – Москва. 1989. Котов Р.Г. Оптимизация речевого воздействия. – Москва. 1990.

5. Беляева Л.Н., Чижаковский В.А. Тезарус в системах автоматической переработки текста. –Кишинев, 1993.

6. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2011. –Б.161.

7. Марчук Ю.Н. Основы терминография. – Москва, 1992.

8. Шарипов Ф.Г. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Филол. фан. док. дисс... – Гулистон, 2022. 265 б.

TIL BIRLIKLARI TASNIFIGA AYRIM CHIZGILAR

Jumanazar Abdullayev,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Guliston davlat universiteti
Jumanazarabdullayev1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada til birliklarining mavjud tasniflariga munosabat bildirilib, ularning miqdori 3tadan 10tagacha tebranib turishi ta’kidlangan, shu munosabat bilan til birliklarining lison va nutq farqlanishiga asoslangan yangicha – kelib chiqish va tadrijiylik tamoyiliga ko’ra 6 lisoniy va 7 nutqiy birlikli – tasnifi amalga oshirilib, muhokama uchun tavsiya qilingan.

Kalit soʻzlar: til birliklari, lisoniy va nutqiy birliklar, fonema; soʻz, leksema, mimema, emotema, leksogrammema, grammema, subyektema; morfema; sintaksema, frazema, tekstema; tovush, soʻzshakl, soʻz birikmasi (birikma), gap (sodda gap), qoʻshma gap (gap birikmasi), matn.

Abstract. The article expresses a reaction to the existing classifications of language units, emphasizing that their number varies from 3 to10, in this regard, a new classification of language units based on the difference between language and speech - 6 linguistic and 7 speech units according to the principle of origin and evolution - has been implemented and recommended for discussion.

Keywords: linguistic units, linguistic and speech units, phoneme; word, lexeme, mimeme, emoteme, lexogrammeme, grammeme, subjecteme; morpheme; syntaxeme, phrase, texteme; sound, word form, phrase (compound), sentence (simple sentence), compound sentence (compound sentence), text.